



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 1-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo JIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi» dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 10.02.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» gamiturası. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 4200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqq boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

Shavkat NISHANOV. Adabiy ta'lim: lug'at va matnshunoslik	3
NAVOYDAN NAVOLAR KELUR	
Asror MO'MIN. Qush tili	5
DARS - MUQADDAS	
Gulnoza QO'LDOSHEVA. Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin	8
Umid HAMROYEV. To'liq va to'liqsiz gaplar	10
Nargiza URAZOVA. Prozada yaratilgan poeziya	13
METODIK TAVSIYA	
Shahnoza ZIYAMUXAMEDOVA. Dars jarayonida matn tuzish	15
Aziza SAYDULLAYEVA. Ona tili darslarida bayon yozdirish va uni tahlil qilish metodikasi	16
Xolida TOJIYEVA. Matnı sharhlab o'rganish	20
Norqul BEKMIRZAYEV. Boburning badiiy nutq mahorati	21
Adiba BOTIROVA. Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar va o'yin-topshiriqlardan foydalanish	23
TAHLIL	
Durdona RASULMUKHAMEDOVA. Amir Temur obrazini yaratishda tarixiy rivoyatlarning ahamiyati	24
Dilfuza ZARIPOVA. "Har so'zni andisha bila boshlag'il..."	26
Qo'chqor SIDDIQOV. Mumtoz adabiyot xazinasining tilla kaliti	28
Ra'no YAXYOYEVA. Mutolaa kundaligi qanday tutiladi?	29
Usmonjon QOSIMOV. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	30
Umida RASULOVA. Qissalarda badiiy obraz mohiyati	31
TADQIQOTLAR	
Sherzod NORMO'MINOV. So'z turkumlaridagi yadro va periferial qismlar va ularni shakllantiruvchi asoslar	33
Gulchehra G'ANIYEVA. Modal so'zlar orqali pragmatik bahoning ifodalanishi	35
KICHIK TADQIQOT	
Feruza ATABEKOVA. Til realiyalarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari	37
Umida NOSIROVA. So'z poetikasi pragmatikaning tadqiqot objekti sifatida	38
Gulnoza AHMEDOVA. Nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatishning lingvodidaktik asoslari	40
Feruzaxon KARIMOVA. Dialogik nutqning o'ziga xos xususiyatlari	41
Intizor ABDIRIMOVA. Ta'lim tizimida klasterning o'rni	43
Siroj FAZILOV. Xalq og'zaki ijodi va zamonaviy dostonchilik	44
Ravshan NIYAZOV. Amerika nasrida yuridik detektiv romanchilikning rivojlanish bosqichlari	46
Muxlisa HAFIZOVA. Adabiyotni o'qitishda adabiy kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati	48
METODIKA. OPIY	
Снежана Кутлуева. Вопросительные местоимения	49
Малика Кутлулова. Т.Ганпов. Сказка «Обиженные двойки»	50
Мадибану Ахмедова. Творчество Захара Прилепина	52
ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ	
Анна Шереметьева. Интерактивные лекции по словообразованию русского языка	53
Равшана Исакова. Владение речевым этикетом – приобретение авторитета, порождающее доверие и уважение	55
Манзура Имамалиева. Применение метода «Деловая игра» на занятиях в неязыковом вузе	57
Юлия ЗЕМЛИНА. Развитие коммуникативных компетенций руководителя общеобразовательного учреждения через проектную деятельность	58
Фатима Хакимова. Приемы развития устной речи и самостоятельного мышления учащихся при обучении русскому языку на основе сказок	60
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАТЕЛЯ	
Саодат Магдиева. Реализация принципа образовательной рефлексии в практике преподавания литературы в вузе	62
Наргис Саримсакова. Структура и содержание методики формирования орфоэпической компетенции курсантов	63
Раъно Турдиева. Развитие у школьников пунктуационной зоркости	65
Дилором Шодиева. Языковой портфель – инструмент самореализации профессионально-языковых компетенций студента	67
ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Махлиё Зайнутдинова. Морфологические явления в русском отъадективном словообразовании	70
ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКЕ	
Беккенбауэр Реймов, Айшолпан Ниязова. Новогодние компоненты при изучении английских фразеологизмов	72
Малика Солиева. О фонологической структуре заимствованных слов английского языка	74
Анвар Юсупов. Особенности изучения иностранного языка в условиях двуязычия (произношение)	76
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Эльвина Алиева, Зарина Ахунова. Аллюзивная игра в произведении Ф.Кривина «Сказка про козлика»	77
ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ	
Ферузaxon Якубова. Значение духовно-нравственного воспитания в системе формирования личности будущего специалиста	79
Махфуза Ахмедова. Нужен ли кружок русского языка в школе?	80

Romanovskiy bog'ida ham shu qabilda beadablik sodir bo'lgan. Chunonchi, sartiylardan biri o'zlariga sohiblik qilib turgan Rusiya to'ralarining istirohatgohlariga kirgan, ya'ni nihoyatda beadablik qilgan".²

Hikoyani o'qib chiqqan har bir esli-hushli odam hayratga tushadi: keksa, betob bir chol o'z shahridagi bog'ga kirib ozgina salqinlasa, bir qultum suv ichsa – buning nimasi "nihoyatda beadablik" ekan? Kishi o'z yurtida begona bo'lib, o'z shahrining tomoshabog'iga kirolmasa, bundan ortiq nohaqlik, bundan og'irroq fojea bo'larmikan?

Hikoyada ofitser bilan mirshablar ham odam-ku, zora rahmi kelib qo'yvorishsa, degan umidda ularga yalinib, ergashib borayotgan kampiriga Usta kulol shunday deydi: "Yig'lama! Men bir turmadan ikkinchi turmaga o'tayotibman, nega yig'laysan?". Jabrdiyda

cholning bu so'zlari Rossiya imperiyasining arzandalari bo'lmish rus harbiylarining o'lkamizda o'rnatgan g'orator va zo'rvonlik siyosatiga berilgan odilona ta'rif, xalq dilidagi adolatli hukm edi. Rossiya tarkibidagi Turkiston ham mashhur rus adibi Gersen iborasi bilan aytganda, "xalqlar turmasiga aylangandi". Dilni ezuvchi bu lavha "madaniy" istilochilarning o'lkamizdagi yurgizgan hukmronlik siyosatidan, xalqqa o'tkazgan zulmi va zug'umidan bir nishona.

Qodiriy va Cho'lpon, Qahhor va Tog'ay Murod kabi millatparvar adiblarimiz ijodi xalqimiz boshidan kechirgan fojialarni unutmaslikka, milliy uyg'onish va tiklanishdan milliy taraqqiyot sari yuksalib borayotgan bugungi O'zbekistonimizni va uning mustaqilligini buyuk ajdodlarimizday qadrlashga va unga sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi.

¹ Abdulla Qodiriy. G'irvonlik Mallavoy. – Toshkent, 1987. 357-bet.

² Abdulla Qahhor. Asarlar.1-t. – Toshkent,1967. 68-bet.

Umida RASULOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

QISSALARDA BADIY OBRAZ MOHIYATI

Insoniyat ilm-u ma'rifat yog'dusida shariflik matlabiga noil bo'ladi. Bu xayrli xizmat ustoz zimmasiga buyuk mas'uliyatni yuklaydi.

Yillar mobaynida ta'lim, tarbiya o'rgatgan insonning halol, mashaqqatli mehnatini qadrlagan ilm-u tolib uni umri davomida unutmaydi. Ezgu maqsad yo'lida zahmat, riyozat chekkan ziyolilar doim jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar. Badiiy adabiyotda, jumladan, qissalarda o'qituvchi, ustoz obrazi muayyan vazifani bajaradi. Ularning maslagi, tajribasi, sof vijdoni adiblar tomonidan teran yoritilgan.

Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" hamda Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissalari mohiyatiga nigoh tashlansa, mushtarak jihatlar ayonlashadi. Ch.Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasida Duyshen ismli yigit ovuldagi bolalarga sidqidildan tahsil beradi. Ilm-u ma'rifatdan mosuvo ota-onalarni to'g'ri tashviq etadi, maktab binosini yolg'iz tiklaydi, Qish qahratonida suv kechib bolalarni yo'lning quruq yeriga o'tkazishi, sovuq sinxonani isitib, darslarni astoydil o'tishi, o'quvchilar irodasini mustahkamlashga erishishi obrazning

mohiyatini belgilaydi. O'n besh yoshli sag'ir Oltinoyni zolim erkak jaholatidan qutqargan muallim og'ir tan jarohatiga qaramay yovuzlikka barham beradi. Muhimi, qarindoshdan ko'rilmagan oqibat, adolat ustoz tomonidan ro'yobga chiqadi. Qissada kishilar o'rtasidagi savodsizlik, jaholatga qarshi ma'rifat masalasi ko'ndalang qo'yiladi. Asarda muallimning olijanob, fidoyi fe'l-atvori boshqa qahramonlar e'tirofidan ham ayonlashib boradi. Ustoz Duyshen shogirdi Oltinoy bilan tepalikka terak novdasini o'tqazadi. Yillar suroni terakka salobat bag'ishlab, kishida ishonch, qat'iyat, matonat tuyg'usini uyg'otadi. "Ko'cha-kuyda nima ko'p – daraxt ko'p, lekin bu teraklar o'zi boshqa bir olam, qandaydir xosiyatli, tili borday. Goh sohilga kelib urilgan erka to'lqinday eshiti-lar-eshitilmas guvillashib qo'yadi, goh jim o'ylanib qolib, sog'ina-sog'ina yuragi qon bo'lganday, allanimalarni eslab xo'rsinib, yulqingan shamol bulut haydab, yomg'ir haydab, butoqlarini egib yuborganda, teraklar bir-biridan madad olib, sindirib bo'psan, deganday battar o'jarlik qilib, zarda bilan to'lg'anib qo'yishadi. To'rt tomoni ochiq baland tepada turishganidan bular doimo shamol

o'qiga to'g'ri kelib havoning har bir o'yiniga javob qaytarib turishgan"¹.

Adib inson siyratidagi po'rtanalarni nabotot ramzlari orqali ifodalaydi. Adl terak olisdan haybat-u savlati, turli hodisotga dadil isyoni ila ulug'vorlik kasb etadi. Muallimdan ilk saboq olgan yoshlar ulg'ayib, turli sohalarda yutuqlarga erishadi. Aslida ular ustozga tashakkur bildirib, zahmatkash odamni e'zozlashi darkor. Muallim o'zgaralar manfaati uchun jonini fido etib, kamtarona turmush kechirsa-da, uning olijanobligi ishonch, beminnat yaxshiligi adolat hikmatidan voqif qiladi.

"Badiiy obraz – ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g'oyasi orqali sintezlashgan voqelikning, inson ruhiyatining muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg'u va kechinmalar timsolida alohida betakrorlikda umumlashtirilgan, estetik qimmatga molik in'ikosidan iborat"².

Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissasida maktab jamoasiga ironik munosabat bildiriladi. Qishloq ta'lim maskanlaridagi jarayon bosqichma-bosqich ochib berilgan. Muallim dunyoqarashi, kasbiga mas'uliyat masalasi muallif hayotiy kuzatishlari asnosida rivojlantiriladi. Qissaga Abdulla Oripovning "Muallim haqida so'zim ushbu, Muallim kamolot ichra ko'zgudir" misrasi epigraf qilib olingan. Adib sharaflilik kasb egalari hayotini ko'zguda aks ettirish borasida mozaika usulini qo'llaydi. Turli iqror maktublari asar poetikasini to'yintirib boradi. Ulardagi manzaralar jamlanib, yaxlit tasavvurni ro'yobga chiqaradi. Voqealar rivojida inson tabiatidagi fazilat-u illatlar asta-sekin fosh bo'ladi. Kundalik turmushga yangi holat, vaziyatning kirib borishi qahramonlarni o'zini taftish etishga majbur qiladi. Adib ustoz obraziga chizgilar tortishda noodatiy lavhalarni matn poetikasiga singdirib yuboradi. Asarda fidoyi yosh yigitning sirli tashrifi ertak, afsonadagi mujda keltiruvchi ezgulik kuchlarini yodga solishi sujet voqealarini jonlantiradi. Yosh muallimning fidoyiligi dangasa, mas'uliyatsiz kimsalarga xush kelmaydi. Qissada muallifning o'tkir kinoyasi zamirida achchiq haqiqat bo'y ko'rsatadi. Ma'lumki, asar qahramonlariga tanlangan ism ham muayyan poetik mazmunga ega. Nosir badiiy obrazlarga nom berishda mavqeyi, fe'l-atvoriga monand jihat-



larga ahamiyat qaratadi. Maorif mudiri Erkaboyev, maktab rahbari Qalqonov jamoadagi muhitni fosh qilmaslikka, muammoni imkon darajasida hal qilishga, buyruqni vaqtida bajarishga moslashgan obrazlar. Ularning "labbaygo'y"lik tutumi bir qancha epizodda asoslab ko'rsatiladi. Bu jamoaga chin ma'noda Najot G'aybullar zarur edi. Najot ustoz-u shogird qismatiga loqayd bo'lmagani bois muammoni tez hamda samarali hal etadi.

"Uning aft-angorida, ust-boshida, ish faoliyatida allanechuk begonalik bor edi. Ana shu begonalik bizni hurkitib turardi."³

Muallif qahramon badiiy portreti vositasida kitobxon qiziqishini orttiradi. Uning suratidan tiynatiga qadar o'zgaligi odatiy me'yor, ko'nikmaga nomuvofiq edi. Boisi yigitni begona deb qabul qilgan pedagoglar loqaydlik, beparvolik iskanjasidan xalos bo'lishni xohlamasdi. Biroq endi jamoa ilmdan yiroqligini, farzandlar kelajagiga raxna solayotganini tushunib yetishga majbur bo'ladi. Darsliklarning direktor xonasida saqlanishi, jihozlangan geografiya xonasining zarur tashriflar uchungina ochilishi singari firibgarliklar oqibatida ilm-u marifat jarayoni sustlashadi. Shoyim Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida ham ziyoli obrazi bor. O'spirinlar o'g'rilik sabab suda javobgarlikka tortilganda o'qituvchi ularning xatosi, aybini kechirishni so'rab: "Bu bolalarning gunohlaridan o'tishlaringizni so'rayman. Ularning o'zlarim bu qilg'ilikni ikkinchi qilmaymiz, deb o'ylanib o'tirishibti",⁴ – deydi.

Ustoz halokat yoqasidagi yigitlarga madad qo'lini cho'zarkan, atrofdagilar istehzosiga sabab bo'ladi. U bemehr, notavon amakidan farqli o'laroq mudom azob chekayotgan, aybini tushungan bolalar holatini idrok etishga qodirligini namoyon etadi. O'zgaralar tashvishidan, yoshlar baxtsizligidan bezovta qalb adashganlarga ezgulik yo'lini ko'rsatishga intilsa-da, barcha harakatlari zoye ketadi.

Inson borki, ko'nglida muqaddas tuyg'u, oliy intilish mavjud. Hayotga mazmun bag'ishlash, umrni xayrli ishlarga safarbar aylash chin farog'at sanaladi. Ijodkorlar o'z asarlarida muallim, ustoz obrazlari vositasida odamzodga ma'rifat hidoyatini ulashuvchi shaxslarni sharaflaydilar.

¹ Ch. Aytmatov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. 43-bet.

² B. Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. 22-bet.

³ L. Bo'rixon. Titrayotgan tog'. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi, 2018. 234-bet.

⁴ Sh. Bo'tayev. Hayot. – Toshkent: Sharq, 2000. 355-bet.